

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA QO‘LLANISH DOIRASI CHEGARALANGAN SO‘ZLAR

Xaytboyeva Shaxlo

Qoraqolpoq davlat universiteti 3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarida ishtirok etgan qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Abdulla Qahhor hikoyalarida keltirilgan qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlarning tahlili haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: chegaralangan, atama, ma’no, iste’mol

Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotimizdagi o‘zgarishlar tilning barcha sohalarida u yoki bu darajada o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keladi. Bunday o‘zgarishlar tilning leksik sathida ancha sezilarli hisoblanadi. “Bunda to‘rt holat kuzatiladi. Birinchidan, ayrim leksemalar eskirib iste’moldan chiqib ketsa, ikkinchidan, allaqachon iste’moldan chiqib ketgan so‘zlar qayta “jonlanadi”, “tiriladi”, uchinchidan, yangi-yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, to‘rtinchidan nafaol so‘zlar faollashadi, iste’mol doirasi kengayadi, ma’nosida o‘zgarish yuz beradi.”[1]

Qo‘llanish doirasi chegaralangan leksemalar. Qo‘llanish doirasi chegaralangan so‘zlarni quyidagilar kiradi: shevaga xos so‘zlar, termin (atama), argo va jargonlar.

Shevaga xos leksemalar. Ma’lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos so‘z shevaga xos leksema deyiladi: kalapo‘sh (Buxoro) – do‘ppi, g‘o‘z (Xorazm) – yong‘oq, mishiqliq (Farg‘ona) – mushuk,poku(Samarqand) – ustara.

Sheva leksemalari fanda dialektizm deb ham yuritiladi.

1.R.Sayfullayeva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 2010 161-bet

Termin. Fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san‘at va madaniyat sohasiga xos leksemalar termin deyiladi.

Terminning chegaralangan qo'llanishga egaligi boshqa soha kishisi uchun tushinarsiz degani emas. Masalan, to'rt chiziq, gap, so'z turkumi, tezlik termini ko'pchilik uchun tushinarli, lekin kam qo'llaniladi.

Termin ko'pincha umumiste'mol so'zidan ma'lum bir ma'noning maxsuslashuvi asosida hosil bo'ladi. Masalan, fojia, ega, ot, termik, qo'shish, ayirish so'zi umumiste'mol so'z. Lekin ular fanga termin bo'lib o'tgan.

Jargon (fransuzcha g'argon – "buzilgan til") ham iste'mol doirasi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi. Kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi yoshiga ko'ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida ishlatadigan leksemalar jargon, jargonizm deyiladi. Masalan, pragrammistlar jargon, talabalar jargon, aslzodalar jargon, o'g'rilar jargon, artistlar jargon va h.

Argo (fransuzcha argot - lahja) ayrim professional yoki ijtimoiy guruhning o'ziga xos tili. Argo bir necha til unsuridan iborat qorishiq va ko'p holda boshqaga tushinarsiz nutq ko'rinishida namoyon bo'ladi. Argo tili o'z grammatikasiga ega emas. Unda umumxalq tili grammatikasiga tayaniladi. Argo ikki maqsadning biri uchun qo'llaniladi:

- 1) Fikrni sir tutish;
- 2) O'zini ajratib ko'rsatish

Quyida Abdulla Qahhor hikoyalarida iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar va ularning ma'nolarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, Dodxoning savoli javobsiz qolishi mumkin emas edi (2-bet dahshat). Ushbu gapda berilgan dodxoh so'zi da'vogar ; odillik va quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1.- esk. kt. Adolat talab etuvchi, odillik istovchi , da'vogar. 2. – tar. Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluchi va uning javobini arizachilarga yetkazuvchi lavozimli kishi. 3. – tar.Qo'qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor. 4. – tar. O'tmishda Farg'ona vodiysi va Toshkentda mingboshi va boshqa ba'zi amaldorlarni ulug'lash uchun ishlatiladigan so'z. Quyidagi gaplarda ham qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar ishtirok etgan gaplarni ko'rishimiz mumkin:

Unsin uyiga kirdi, paranji chimmatini yopindi, qumg'onga suv to'ldirib, choynakka choy soldi-yu jo'nadi. (3-bet dahshat) Bu keltirilgan gapda paranji so'zi Shayxlarning ham o'zi, ham yengi keng ustki kiyimi, etn. Ko'pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko'rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to'n shaklidagi, soxta yengli yoping'ich . Qumg'on so'zi esa choy qaynatish uchun ko'pincha misdan yasaladigan, ichi qalay bilan oqartirilgan, ko'zacha shaklidagi dastali va qopqoqli idish; katta choydosh.

:uyezd hokimi “akangizni mingboshi qilaman” , deb uch ming yigirma yeti so'm pulini yeb, saylovda degrezlik Islomiddin degan jallobni saylagan ekan (192 – bet Yillar (anor)) . Ushbu gapdagi Uezd – qad.r. yezd – yo'l; ko'cha yurish. Esk. Chor Rossiyasida va sobiq SSSRda : - 1929 – yilgacha gubernator tarkibidagi ma'muriy-hududiy bo'linma hisoblangan. Mingboshi so'zi esa 1. Daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi. 2. Qo'shin boshlig'i kabi tushinchalarni bildiradi.

Shu vajdan Qutbiddinov suhbatning boshlanishida jinday tashvishmand bo'lganidanmi, bu safar mavzu shaharning kelajagi fanning jimib ketgani emas, bola tarbiyasi bo'lib qodi (82-bet O'jar (anor)). Vaj so'zi yuz, chehra; tomon; sabab; asos 1 Biror narsa va hodisani keltirib chiqaruvchi asos; sabab 2. Xizmat haqqi, badal. Yuqoridagi misolda vaj so'zi sabab ma'nosida kelyabdi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Baxtiyor Mengliyev “ Hozirgi o'zbek tili” “Taffakur bo'stoni” nashriyoti Toshkent – 2018
2. R.Sayfullayeva “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent - 2010
3. Abdulla Qahhor “Anor” qissa va hikoyalar G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2012
4. Abdulla Qahhor “Yillar” hikoyasi (anor kitobi ichida)
5. Abdulla Qahhor “O'jar” hikoyasi
6. Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyasi